



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIYTA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AGROBIOTEXNOLOGIYALAR VA OZIQ-
OVQAT XAVFSIZLIGI INSTITUTI



Ro'yxatga olingani:
№ BD-60810500
2024-yil "10" ok



DEHQONCHILIK VA MELIORATSIYA
FAN DASTURI

Hilim sohasi:	800 000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000 – Qishloq xojaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60810500 – O'simliklarni himoyasi va karantini

Amol

		Tuproqni madaniylashtirishning: agrozifikaviy, agrokimyoviy va biologik usullari. Tuproqdagi organik moddalar va ularning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.
		Suv rejimi hamda uni boshqarish usullari. Tuproqning suv rejimi va uni boshqarish usullari. O'simlik hayotida va tuproqda suvning ahamiyati. O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun talab qilinadigan suvning miqdori. Tuproqdagi namlikning asosiy manbalari, suv shakllari. Tuproqning suv xossalari (nam sig'imi, suv o'tkazuvchanligi, suv kutaruvchanlik qobiliyati, suv bug'latish xususiyati). O'simliklarning transpiratsiya koeffitsiyenti.
M3		Tuproqning havo rejimlari hamda ularni boshqarish usullari O'simlik hayotida atmosfera hamda tuproq havosining ahamiyati va uning kimyoviy tarkibi. Tuproq havo rejimini uning donadorligiga, namligiga, ishlov berilishiga va suv rejimiga bog'liqligi. Tuproqning suv va havo rejimini boshqarish usullari.
M4		Tuproqning issiqlik va oziq rejimlari hamda ularni boshqarish usullari. Tuproqning issiqlik rejimi va uni boshqarish usullari. Tuproqdagi issiqlik manbalari. O'simliklar urug'larning unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishida issiqlikqa bo'lgan talabi. O'simliklar uchun kerak bo'lgan minimal. Maksimal va optimal haroralar. Haroratning mikroorganizmlar va organik moddalarga ta'siri. Qishloq xo'jaligi ekinlarining oziq elementlariga bo'lgan talabi. O'simliklar hayotida makro va mikroelementlar hamda mikroorganizmlarning roli. Tuproqning oziq rejimini yaxshilashda almashlab ekish va don-dukkakli o'simliklarning ahamiyati. Tuproqning issiqlik va oziq rejimini boshqarish usullari.
M5		Begona o'tlarning biologik guruxlari hisobga olish usullari. Begona o'tlarning klassifikatsiyasi (biologik guruxlari). Oziqlanish usuliga qarab - tekinkxo'r (parazit) va notekinkxo'r begona o'tlar. Tekinkxo'r begona o'tlar (haqiqiy va yarim tekinkxo'r) va ularning vakillarga tavsif. Notekinkxo'r begona o'tlar. Kam yillik va ko'p yillik begona o't vakillariga tavsif. Begona o'tlarni hisobga olish usullari va ifloslanganlik xaritasini tuzish hamda uning ahamiyati. Hisobga olish va xaritalashda dalalar bo'yicha begona o'tlarni oilalari, bir yillik va ko'p yilliklarga ajratish. Aniq va chamlab hisobga olish usullari. Begona o'tlarni hisobga olish, xaritalash.
M6		Begona o'tlarga qarshi kurash choralar. Begona o'tlarga qarshi kurash tadbirlari. Begona o'tlar tarqalishini oldini oluvchi, qiruvchi, agrotexnik, biologik va maxsus kurash tadbirlari va ularni ishlab chiqish. Begona o'tlarga qarshi kurashda karantin tadbirlari. Biologik kurashda almashlab ekishning o'rni va ahamiyati. Kimyoviy kurash tadbirlari. Begona o'tlarga qarshi kurash tadbirlari. Begona o'tlar tarqalishini oldini oluvchi, qiruvchi va karantin tadbirlari. Begona o'tlarni yo'qotishda kuzgi shudgorning ahamiyati. Agrotexnik, biologik, kimyoviy va boshqa kurash choralarini uyg'unlashtirish. Ekishdan oldin va qator oralaridagi begona o'tlarni yo'qotish. Biologik kurash choralarini va almashlab ekishning ahamiyati.
M7		Kuzgi shudgor, tuproqqa ishlov berishning resurs tejovchi texnologiyalari, haydalma qatlam qalinligini oshirish usullari. Kuzgi shudgorning umumiy masalalari, maqsadi va vazifalari; yerga ishlov berish qurollari va yerga mexanikaviy ta'sir etish. Yerni ishlashdagi texnologik jarayonlar: qatlamni ag'darish, yumshatish, aralashtirish, zichlash, tekislash, egat, echiqlar olish. Yerni haydash muddati, chuqurligi va agregat tezligi. Plug turlari, tuzilishi. Ag'dargich (otval)
M8		

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	YE-STS - kreditlar
DHME11308	2025-2026	III IV	6
DHME11408			
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	Umumiy (soat)
Majburiy	O'zbek		
Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
I.			
Dehqonchilik va melioratsiya	54	66	120
	56	64	120

Fanning maqsadi (FM)

I. Fanni o'qitishdan maqsad - Fanni o'qitishdan maqsad - dehqonchilik va melioratsiyaga oid zamonaviy bilimlarni, sug'oriladigan dehqonchilikning umumiy masalalari, sug'orilashning istiqbolli usullari, sho'rliqan va botqoqlangan tuproqlarning yaxshilash, ekinlarning tuz ta'siriga chidamliligini oshirish, tuproqlar sho'rliqan, botqoqlanishi va eroziyasiga qarshi kurash tadbirlari, oldini olish choralarini o'rganish hamda ularni amaliyotda tadbir etish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

FM1

Fanning vazifalari: talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, dehqonchilikning ilmiy asoslarini, sug'oriladigan dehqonchilikning umumiy masalalari, yerga ishlov berish jarayonlari uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashiga ko'maklashish, dehqonchilikning ilmiy asoslari kabi dolzarb masalalarni ochib berish, qishloq xo'jalik ekinlarini suv rejimi bo'yicha amaliy ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Fan mazmuni

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

Fanning maqsadi, vazifasi, ilmiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.

Fanning maqsadi, vazifasi va rivojlanish tarixi. O'zbekistonda dehqonchilikning hozirgi davrdagi holati. Sug'oriladigan va lalmikor yerlarda dehqonchilikning asosiy xususiyatlari. Sug'oriladigan va lalmikor yerlarning maydoni haqida ma'lumotlar. Dehqonchilik fanning rivojlanish bosqichlari. Dehqonchilik fanini rivojlanishda olinilarning roli. O'simliklarning hayot omillari va ilmiy dehqonchilikning qonunlari. Madaniy o'simliklarning yorug'lik, harorat, havo, oziq va suvga bo'lgan talabi.

Tuproq unumdorligi va madaniy tili.

Tuproq unumdorligi haqida tushuncha. Tabiiy, sun'iy, potentsial va sinarali unumdorlik tushunchalari. Tuproq unumdorligini oshirish usullari. Tuproq madaniy tili.

M2

	dehqonchilik madaniyatini ko'tarish tajribalari. Organik dehqonchilikda mahsulot yetishtirishda tuproqqa mineral o'g'itlar va pestitsidlarni qo'llash me'yorlari.
	2-Modul. Melioratsiya
M13	13-Mavzu. Kirish. Melioratsiya haqida umumiy tushunchalar. Qishloq xo'jalik melioratsiyasining hozirgi ahvoli va rivojlantirish istiqbollari Qishloq xo'jalik melioratsiyasi fanining predmeti va vazifalari. Melioratsiya haqida umumiy tushunchalar. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi - Qishloq xo'jaligini jadallashtrish asosi, Qishloq xo'jaligi uchun noqulay bo'lgan tabiiy sharoitlarni tubdan o'zgartiruvchi vosita. Respublikada qishloq xo'jalik melioratsiyasining tarixi va hozirgi ahvoli. Prezident va Hukumat qarorlari negizida melioratsiyani rivojlantirish istiqbollari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19-apreldagi «2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va sug'oriladigan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1958-sonli qarori. Qishloq xo'jalik melioratsiyasining vazifalari. Yaxshilash obyektlariga va uslublariga ko'ra melioratsiya turlari (iqlim, tuproq, gidrogeologik va gidrologik, suv-xo'jalik, agrotexnik, gidrotexnik, mexanikaviy, kimyoviy). O'zbekistonning sug'orish resurslari va sug'orish suvi manbalari. Sug'orish turlari va noo'suv davridagi sug'orishlar O'zbekistonning sug'orish resurslari. Suv bilan ta'minlanganlik. Suv resurslarining antropogen ta'sirida o'zgarishi. sug'orish suvi manbalari. Yer usti suvlari: daryolar, soylar, ko'llar, suv omborlari. Daryolarning suvi bilan tuzinishi. Yer osti suvlari. Mahalliy sug'orish resurslari: kollektor-zovur, oqova va chiqindi suvlar. Suvlarning sifati va ularning sug'orish uchun yaroqliligi. Suv sifatining tuproq va o'simliklarga ta'siri. Suv sifatini yaxshilash. Suvlarning sug'orish uchun yaroqliligini aniqlash.
M14	
M15	Sug'orish turlari va noo'suv davridagi sug'orishlar Sug'orish turlari: namlitiruvchi, namlitiruvchi-sho'r yuvish, maxsus, muntazam va nomuntazam, liman sug'orish, yalpi (yoppasiga) va tanlab Sug'orishlar. Noo'suv davridagi sug'orishlar: shudgordan oldin sug'orish, sho'r yuvish, nam tuplash maqsadida sug'orish, ekishdan oldin sug'orish, urug' suvi berish, provakasion sug'orish, nam to'plash-o'g'itlash maqsadida sug'orish, sovuq urushiga qarshi sug'orish.
M16	Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimi Ekinlarni sug'orish rejimi tushunchasi. Mavsumiy sug'orish me'yorlari. sug'orish me'yorlari. Hisobiy qatlam qalinligi. Sug'orish soni, sug'orish davomiyligi mavsum davomiyligi, sug'orishlar orasidagi davr. Ekinlarni sug'orish rejimini belgilovchi omillar: iqlim, tuproq, gidrogeologik va xo'jalik sharoitlari, o'simliklarning biologik xususiyatlari. Sug'orish muddatlarini belgilash usullari: o'simliklarning fiziologik ko'rsatkichlari (bargning so'rish kuchi, hujayra shirasining konsentratsiyasi), o'simliklarning tashqi belgilari (bargning rangi, turgor holati, asosiy poyaning o'sish jadalligi, gullash jadalligi);

	larning turlari. Ularning ishlashi va vazifasi. Yerni ikki yarushli plugda haydash. Qatlarni ag'darmay yerni ishlash. Yerni ishlash sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Tuproqning texnologik xususiyatlari. Haydash usullari, dalalarni zagon (taxta) larga bulib haydash, zagonlarni navbatlab ichtakiga va tashqariga qarab ag'darib haydash, aylama pluglarda haydash. Yerga ishlov berishning sifati.
M9	Kuzgi g'alla ekinlardan bo'shagan dalalarga ishlov berish Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishda kuzgi shudgorning ahamiyati. Kuzgi shudgorni o'tkazish muddatlari, chuqurligi. Yerni kuzda ikki yarushli plugda haydash. Haydash chuqurligini tabaqalashtrish, haydalma qatlam qalinligi va uni oshirish usullari. Tuproqqa minimal ishlov berishning zaruriyati. Tuproqqa minimal ishlov berishning qo'llanish sharoitlari. Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasi. Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi texnologiyasi dunyo dehqonchiligida qo'llash. Tuproqqa ishlov berishning resurstejovchi minimal texnologiyasini ahamiyati. Yerni ekin ekishga tayyorlash, qishloq xo'jalik ekinlarini ekish. Ekin ekishdan keyin tuproqqa ishlov berish Yerga ekin ekishdan oldin ishlov berishning maqsadi va vazifalari. Qishloq xo'jalik ekinlarini ekishdan oldin yerlarni tekislash. Tuproqni eizellash, boronlash, kultivatsiya qilish, disklash, molalash, dalaga mola bosish. Yumshoq qatlam hosil qilish. Urug'larning qiyg'os unib chiqishi uchun sharoit yaratish. Qishloq xo'jalik ekinlarini o'z vaqtida va sifatli ekishning ahamiyati. Qishloq xo'jalik ekinlarini ekish usullari. Sochma usulda ekish, keng qatorlab ekish, seriyalab ekish, qatorlab, tup-tup qilib ekish, yoppasiga qatorlab ekish, tor qatorlab ekish, pushtaga ekish, egatga ekish, tasmasimon ekish, uyalariga belgilangan miqdorda urug' ekish va boshqalar. Ekish muddatlari, chuqurligi, urug' ekish miqdori va o'simliklarni oziqlanish maydoni. Ekin ekishdan keyin tuproqqa ishlov berish. Har xil qishloq xo'jaligi ekinlarida qatqaroqni yo'qotish usullari. Qator oralari ishlanadigan ekinlarda tuproqqa ishlov berish. Yoppasiga ekilgan kuzgi, bahorgi va takroriy ekinlarda ishlov berish.
M10	
M11	11-Mavzu. Almashlab ekish. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimi Almashlab ekish, surunkasiga ekish va monokultura haqida tushuncha. Almashlab ekishning tarixi, rivojlanishi va uni joriy etish. Ekinlarni ilmiy asosda navbatlab ekilishi. Almashlab ekishning agrotexnik va tashkiliy - xo'jalik hamda iqtisodiy jihatdan ahamiyati. Almashlab ekish klassifikatsiyasi va sxemasi, rotatsiyasi hamda rotatsiya jadvali. O'tmishdosh ekinlarning ahamiyati, oraliq va siderat ekinlar. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimi. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari va uning zaruriyati. Qisqa navbatli almashlab ekish tizimlarini dehqonchilikka joriy qilish. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimini tarkibi. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish dalalarida tuproqning agrozifikaviy va agrokimyoviy xossalari. Dehqonchilik tizimi va organik dehqonchilikda ekinlarni yetishtirish.
M12	Ilbidiy (primitiv), ekstensiv va intensiv dehqonchilik tizimlari. Dehqonchilik tizimining rivojlanish tarixi va ahamiyati. Dehqonchilik tizimlarining muhim tarkibiy qismlari. Almashlab ekish maydonlari va tizimlarini tashkil qilish. O'g'itlarni qo'llash, yerni ishlash, begona o'tlar, o'simlik kasalliklari va zararkundalarga, qirg'oqchilikka, suv va shamol eroziyasiga qarshi kurashning maxsus choralar, sug'orish va zax qochirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish. Ilbidiy xo'jaliklarning yerdan umumiy foydalanish va

	tuproq namligiga ko'ra aniqlash. Ekinlarni sug'orish sxemasi. Sug'orish gidromoduli va grafigi: tabaqalashtirilgan va tabaqalashtirilmagan. Suv tejovchi sug'orish usullari va texnikasi Ekinlarni sug'orish usullari. Yer yuzasidan (eglatib, yo'laklab va chek olib bostirib), yomg'irliab, aerazol, tuproq orasidan, tomchilatib sug'orishlar, subirrigatsiya. Ekinlarni sug'orish usullarini qo'llash maqsadlari va sharoitlari. Eglatib sug'orish texnikasi elementlari. Eglatilgan suv taqsimlash texnikasi. Sug'orish mashina va agregatlari. Egatga tushalgan plyonkalar orqali sug'orish. Qator oraliq sug'orish. O'zgaruvchan oqim bilan sug'orish. Diskert sug'orish. Ekinlarni istiqbolli sug'orish usullari va texnikalari. Yomg'irliab sug'orish tizimi. Yomg'irliab sug'orish mashina va agregatlari. Impulsi yomg'irliab sug'orish. Tuproq orasidan sug'orish tizimi. Tomchilatib sug'orish tizimi. Aerazol sug'orish. Irrigatsiya eroziyasi va uni oldini olish tadbirlari. Sug'orish usullari va texnikasining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari. Sug'orish tizimlari. Xo'jaliklararo va xo'jalik sug'orish tizimlari. Ochiq, yopiq va aralash tizimlar. Suv o'z oqimi bilan, mexanik, aralash tipda uzatiluvchi tizimlar. Kuchmas, yarim kuchma va kuchma tizimlar. Sug'orish tarmoqlari. Temir-beton nov (lotok kanal)lar. Muvaqqat sug'orish tarmoqlari. Muvaqqat sug'orish tarmoqlarini sug'orish uchastkalarida joylashtirish sxemalari. Suv yig'ish-tashama (oqova) tarmoqlari. Kollektor-zovur tarmoqlari. Sug'orish tizimlaridan foydalanish.
M17	
	Yerlarning meliorativ holatiga tabiiy va suv-xo'jalik sharoitlarining ta'siri Tuproqlar meliorativ holatiga tabiiy sharoitlarning ta'siri. Gidrogeologik zonalar. Irrigatsiya-xo'jalik sharoitlarining tuproqning meliorativ holatiga ta'siri. Tuproqlarning birlamchi va ikkilamchi sho'rlanishlari. Tuproqlar sho'rlanishining asosiy manbalari va sabablari (tog' jinslari va mineralarning nurashi, tuzli cho'kma jinslar). Mineralashgan sizot suvlari tuproqlar sho'rlanishining asosiy manbasi. Yer usti va sizot suvlari bilan tuzlarning tarqalishi. Sizot suvlar rejimi, balans, kritik va mutadil chuqurliklari. Tuproqning tuz rejimi. Tuproq suvlari: sizot, yer osti suvlar (bosimli va bosimsiz) artezian suvlari. Sizot suvlar rejimi va unga ta'sir etuvchi sharoitlar. Sizot suvlarining tuproqning suv va tuz rejimiga va ekinlar hosildorligiga ta'siri. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ rejimlari (avtomorf, avtomorf-gidromorf, gidromorf). Sizot suvlarining mutadil chuqurliklari va ularni belgilovchi omillar. Sizot suvlarining kritik chuqurliklari belgilovchi omillar. Sizot suvlar balans. Tuproqning tuz rejimi va balans (ijobiy, salbiy, muvozanat). Yer sho'rlanishi va botqoqlanishini oldini olish va qarshi kurashda qo'llaniladigan meliorativ, agromeliorativ va suv xo'jalik tadbirlari Tuproqlar sho'rlanishi va botqoqlanishini oldini olish hamda unga qarshi kurashda qo'llaniladigan meliorativ tadbirlar tizimi. Sug'oriladigan yerlarni meliorativ jihatdan tadqiq qilish va baholash (meliorativ mintaqalar, kichik mintaqalar va gidromodul rayonlar bo'yicha) hamda oldini olish tadbirlarining asosiy vazifalari. Sug'oriladigan yerlarni meliorativ nazorati va yerdan foydalanish ko'effitsiyenti.
M18	
M19	
M20	

	foydalanish, Sug'orish tarmoklaridan suvning filtratsiyaga sarflanishini kamaytirish, sizot suvlaridan ekinlarni Sug'orishdan foydalanish, tejimli Sug'orish usullarni qo'llash. Agromeliorativ tadbirlar. Yerlarni tekislash, uning agroteknik va meliorativ ahamiyati, turlari (kapital joriy, qisman). O'rmon ixota daraxtlari ekish va ularning meliorativ ahamiyati (mikroiqlimga, eroziyaga qarshi, sizot suvlar rejimiga ta'siri). G'o'za-beda almashlab ekishni tashkil etish va uning meliorativ ahamiyati. Bedaning meliorativ ahamiyati va uning sizot suvlar rejimiga ta'siri. Tuproqlar sho'rlanishi va botqoqlanishini oldini olish hamda unga qarshi kurashda qo'llaniladigan gidroteknik tadbirlar.
M21	Sho'rlangan yerlarni yuvish, me'yorlari, usullari va o'lkazish muddatlari Sho'rlangan yerlarni yuvish, sho'r yuvish samaradorligiga tuproq, gidrogeologik, iqlim va agroteknik sharoitlarining ta'siri. Sho'r yuvish muddatlari, usullari va o'lkazish texnikasi. Sho'r yuvish normalari va uni hisoblash (zovurli va zovursiz sharoitlar uchun). Sho'r dog'larni yuvish va o'zlashtirish.
M22	Sug'oriladigan yerlarda zovurlar, ularning ahamiyati va turlari Zovurlar ularning turlari va vazifalari. Zovurlardan foydalanish tarixi, ahamiyati va samaradorliklari. Ochiq gorizontal zovurlar. Zovurlarning ta'sir mexanizmi. Zovurlarning umumiy va ish chuqurligi. Zovurlarni rejali joylashtirish. Zovurlar chuqurligi va ular orasidagi masofa va zovur oqimining moduli. Ochiq gorizontal zovurlarning afzalliklari va kamchiliklari. Ochiq zovurlardan foydalanish. Yopiq, zovurlarning tuzilishi, suv singish jarayoni, quvurlarni joylashtirish chuqurligi, nishablari, zovurlar orasidagi masofa, kuzatish quduqlari. Zovurlar faoliyatining ishdan chiqish sabablari. Vertikal zovurlar, ularning tuzilishi. Zovur quduqlarni joylashtirish tizimi. Zovur suvlaridan sug'orishda va sho'r yuvishda foydalanish.
M23	Sho'rxok va sho'rxokli, sho'rtob va sho'rtobli, taqirli tuproqlar va qumliklarni o'zlashtirish. Sho'rxok va sho'rxokli, sho'rtob va sho'rtobli yerlar o'zlashtiriladigan rayonlar. Sho'rtob va sho'rtobli tuproqlarning meliorativ holati, o'zlashtirish texnologiyalari (zovurlashtirish, tekislash, kuzgi-qishki sho'r yuvish, sholi ekib sho'rini yuvish, o'zlashtirishda qo'llaniladigan kimyoviy tadbirlar). Taqirli va taqirsimon, gipsli, karbonatli tuproqlar o'zlashtirish (chuqur yumshatish, tilmalash, mineral va organik moddalar solish, qumlash). Qumliklar va qumli tuproqlar tarqalgan rayonlar. Qumliklarni mustahkamlash va daraxtzorlar barpo qilish. Qumliklarni ko'chishiga qarshi qo'llaniladigan agroteknik tadbirlar. Kimyoviy va fitomelioratsiya.
M24	Taqirli tuproqlar va qumliklarni o'zlashtirish. Taqirli va taqirsimon, gipsli, karbonatli tuproqlar o'zlashtirish (chuqur yumshatish, tilmalash, mineral va organik moddalar solish, qumlash). Qumliklar va qumli tuproqlar

	tarqalgan rayonlar. Qumliklarni mustahkamlash va daraxtzorlar barpo qilish. Qumliklarni ko'chishga qarshi qo'laniladigan agrotexnik tadbirlar. Kimyoviy va fitomelioratsiya.																																																								
M25	Tuproqlarning suv va shamol eroziyasi, sel oqimi va uni oldini olish tadbirlari Suv va shamol eroziyasi va uni oldini olish. O'zlashtirilgan yerlardan foydalanish yullari (dastlabki o'zlashtirish ekinlari, asosiy ekinlar va ularning agrotexnikasi, almashlab ekish tizimi, o'zlashtirilgan yerlarni meliorativ nazorati). Suv va shamol eroziyasi. Tarqalish rayonlari, vujudga kelish sabablari. Suv va shamol eroziyasini oldini olish va ularga qarshi kurash tadbirlari (agrotexnik, o'rmon-texnik va gidrotexnik). Sug'orish natijasida yuzaga keladigan irrigatsiya eroziyasi va uni oldini olish hamda unga qarshi kurash tadbirlari. O'zbekistonda sel oqimi vujudga keladigan mintaqalar. Sel oqimini paydo bo'lish sabablari. Sel oqimiga qarshi kurash chorlari (agroo'rmon, meliorativ va gidrotexnik tadbirlar). III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi. <table> <tr><td>A1</td><td>Suvlarning sifati va sug'orish uchun yaroqliligini aniqlash</td></tr> <tr><td>A2</td><td>Sug'orish tarmoqlarining tarkibiy qismlari va ularning suv o'tkazish qobiliyatini aniqlash</td></tr> <tr><td>A3</td><td>Sug'orishga berilayotgan va oqova suvlarini hisobga olish</td></tr> <tr><td>A4</td><td>Qishloq xo'jalik ekinlari sug'orish rejimini aniqlash</td></tr> <tr><td>A5</td><td>Sug'orish texnikasi elementlarini hisolash</td></tr> <tr><td>A6</td><td>Xo'jalik suvdan foydalanish rejimini tuzish</td></tr> <tr><td>A7</td><td>Sug'orishning gidramodul grafigini tuzish</td></tr> <tr><td>A8</td><td>Tuproqdagi tuzlarning yo'lao'yilishi mumkin bo'lgan miqdorini aniqlash</td></tr> <tr><td>A9</td><td>Tuproqning sho'rlanganlik xarakteri (tipini) aniqlash</td></tr> <tr><td>A10</td><td>Tuproqdagi tuz va suv zahirasini aniqlash</td></tr> <tr><td>A11</td><td>Zovur oqim modulini hisoblash</td></tr> <tr><td>A12</td><td>Tuproqning sho'rlanish darajasi, sizot suvlarining joylashish chuqurligini va ularning mineralizatsion darajasini o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlash</td></tr> <tr><td>A13</td><td>Sizot suvlar balansini aniqlash</td></tr> <tr><td>A14</td><td>Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy meyorini aniqlash</td></tr> <tr><td>A15</td><td>Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy meyorini aniqlash.</td></tr> </table> III. Mashg'ulotlar shakli: laboratoriya (L) <table> <tr><td>L1</td><td>Tuproq agregatlarining suvga chidamliligini N.I. Savvinov usulida aniqlash</td></tr> <tr><td>L2</td><td>Egat tolib (infiltratsiya usulida) va bostirib sug'orishda struktura elementlarining chidamliligiga tuproq havosining ta'sirini aniqlash.</td></tr> <tr><td>L3</td><td>Haydama qatlam tuzilishini aniqlash</td></tr> <tr><td>L4</td><td>Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlash</td></tr> <tr><td>L5</td><td>Har xil tuproqlarning suv o'tkazuvchanligini aniqlash.</td></tr> <tr><td>L6</td><td>Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlash</td></tr> <tr><td>L7</td><td>Tuproqning namligini aniqlash</td></tr> <tr><td>L8</td><td>Tuproqning namligini aniqlash</td></tr> <tr><td>L9</td><td>Tekinxo'r va kam yillik begona o'tlarning ta'rifi.</td></tr> <tr><td>L10</td><td>Bir yillik va ikki yillik begona o'tlarning ta'rifi.</td></tr> <tr><td>L11</td><td>Ko'p yillik begona o'tlarning ta'rifi</td></tr> <tr><td>L12</td><td>Dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganligini aniqlash va xaritalash</td></tr> <tr><td>L13</td><td>Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini hisobga olish.</td></tr> </table>	A1	Suvlarning sifati va sug'orish uchun yaroqliligini aniqlash	A2	Sug'orish tarmoqlarining tarkibiy qismlari va ularning suv o'tkazish qobiliyatini aniqlash	A3	Sug'orishga berilayotgan va oqova suvlarini hisobga olish	A4	Qishloq xo'jalik ekinlari sug'orish rejimini aniqlash	A5	Sug'orish texnikasi elementlarini hisolash	A6	Xo'jalik suvdan foydalanish rejimini tuzish	A7	Sug'orishning gidramodul grafigini tuzish	A8	Tuproqdagi tuzlarning yo'lao'yilishi mumkin bo'lgan miqdorini aniqlash	A9	Tuproqning sho'rlanganlik xarakteri (tipini) aniqlash	A10	Tuproqdagi tuz va suv zahirasini aniqlash	A11	Zovur oqim modulini hisoblash	A12	Tuproqning sho'rlanish darajasi, sizot suvlarining joylashish chuqurligini va ularning mineralizatsion darajasini o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlash	A13	Sizot suvlar balansini aniqlash	A14	Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy meyorini aniqlash	A15	Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy meyorini aniqlash.	L1	Tuproq agregatlarining suvga chidamliligini N.I. Savvinov usulida aniqlash	L2	Egat tolib (infiltratsiya usulida) va bostirib sug'orishda struktura elementlarining chidamliligiga tuproq havosining ta'sirini aniqlash.	L3	Haydama qatlam tuzilishini aniqlash	L4	Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlash	L5	Har xil tuproqlarning suv o'tkazuvchanligini aniqlash.	L6	Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlash	L7	Tuproqning namligini aniqlash	L8	Tuproqning namligini aniqlash	L9	Tekinxo'r va kam yillik begona o'tlarning ta'rifi.	L10	Bir yillik va ikki yillik begona o'tlarning ta'rifi.	L11	Ko'p yillik begona o'tlarning ta'rifi	L12	Dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganligini aniqlash va xaritalash	L13	Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini hisobga olish.
A1	Suvlarning sifati va sug'orish uchun yaroqliligini aniqlash																																																								
A2	Sug'orish tarmoqlarining tarkibiy qismlari va ularning suv o'tkazish qobiliyatini aniqlash																																																								
A3	Sug'orishga berilayotgan va oqova suvlarini hisobga olish																																																								
A4	Qishloq xo'jalik ekinlari sug'orish rejimini aniqlash																																																								
A5	Sug'orish texnikasi elementlarini hisolash																																																								
A6	Xo'jalik suvdan foydalanish rejimini tuzish																																																								
A7	Sug'orishning gidramodul grafigini tuzish																																																								
A8	Tuproqdagi tuzlarning yo'lao'yilishi mumkin bo'lgan miqdorini aniqlash																																																								
A9	Tuproqning sho'rlanganlik xarakteri (tipini) aniqlash																																																								
A10	Tuproqdagi tuz va suv zahirasini aniqlash																																																								
A11	Zovur oqim modulini hisoblash																																																								
A12	Tuproqning sho'rlanish darajasi, sizot suvlarining joylashish chuqurligini va ularning mineralizatsion darajasini o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlash																																																								
A13	Sizot suvlar balansini aniqlash																																																								
A14	Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy meyorini aniqlash																																																								
A15	Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy meyorini aniqlash.																																																								
L1	Tuproq agregatlarining suvga chidamliligini N.I. Savvinov usulida aniqlash																																																								
L2	Egat tolib (infiltratsiya usulida) va bostirib sug'orishda struktura elementlarining chidamliligiga tuproq havosining ta'sirini aniqlash.																																																								
L3	Haydama qatlam tuzilishini aniqlash																																																								
L4	Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlash																																																								
L5	Har xil tuproqlarning suv o'tkazuvchanligini aniqlash.																																																								
L6	Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlash																																																								
L7	Tuproqning namligini aniqlash																																																								
L8	Tuproqning namligini aniqlash																																																								
L9	Tekinxo'r va kam yillik begona o'tlarning ta'rifi.																																																								
L10	Bir yillik va ikki yillik begona o'tlarning ta'rifi.																																																								
L11	Ko'p yillik begona o'tlarning ta'rifi																																																								
L12	Dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganligini aniqlash va xaritalash																																																								
L13	Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligini hisobga olish.																																																								

L14	Almashlab ekish
L15	Almashlab ekish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"DEHQONCHILIK VA MELIORATSIYA" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejas

No	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Respublikamiz dehqonchiligining hozirgi holati, muammolar va hal qilish yo'llari bo'yicha ilmiy maqolalar sharhi. Dehqonchilik qonunlari.
2.	Ekin ekishdan keyin qator oralariga ishlov berish
3.	Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish chuqurligi, me'yori, usuli va muddatlari.
4.	Begona o'tlarga qarshi kurashda ishlatiladigan gerbisidlar tasnifi, ishlab chiqarishda keng qo'llanilayotgan gerbisid turlari va ta'sir etuvchi moddalar
5.	Begona o'tlar biologik guruhlari va botanik ta'rifi
6.	Yerga asosiy ishlov berish usullarining tuproq xususiyatlari va o'simliklarning o'sishi hamda rivojlanishiga ta'siri
7.	Yerlarni tukuroriy ekin ekishga tayyorlash texnologiyasi
8.	Qator orasiga ishlov beruvchi ekinlarning ekish me'yorlarini hisoblash
9.	Yoppasiga va qator orasiga ishlov berilmaydigan ekinlar ekish me'yorlarini hisoblash
10.	Almashlab ekishning begona o'tlarni yo'qotishdagi ahamiyati
11.	Qator orasiga ishlov berish usullari, muddatlari, kultivator organlarining joylashtirish masofasi
12.	Dehqonchilikda resurstejovchi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va turlari.
13.	Suv taqchil sharoitlarda qishloq xo'jalik ekinlarni sug'orishda suvdan tejimli foydalanish usullari (go'za, bugdoy, sholi, makkajo'xori va poliz ekinlari misolida)
14.	Mevval bog' va uzumzorlarda tomchilatib sug'orish usulini qo'llash
15.	O'rta va kuchli sho'rlangan yerlarni o'zlashtirish texnologiyasi va ulardan samarali foydalanish
16.	Sug'oriladigan yerlarda kollektor-zovur tarmoqlaridan samarali foydalanish yo'llari
17.	Sug'orish tizimlarida suv o'lchash
18.	Sho'rlangan yerlarda dastlabki o'zlashtirish ekinlarini ekish texnologiyasi
19.	O'rta va kuchli sho'rlangan yerlarni o'zlashtirish texnologiyasi
20.	Sug'orish eroziyasiga uchragan yerlarni unumdorligini tiklash usullari
21.	O'zbekistonning sho'rlangan tuproqlari umumiy maydoni statistikasi viloyatlar kesimida

DEHQONCHILIK VA MELIORATSIYA fani bo'yicha mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rnatilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish kabi ko'rinadigan ishlarini bajarish tavsiya etiladi.

3.	Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: -yerga ishlov berishning ilmiy asoslari to'g'risida; - sug'oriladigan yerlarni meliorativ rayonlashtirish; -mintaqadagi ekologik holat, iqlim o'zgarishi va uning oqibatlarini haqida tasavvurga ega bo'lishi; -almashlab ekishni loyihalashtirish, joriy etishni; -tuzlarning o'simliklarga zararli ta'sirini kamaytirish tadbirlarini; -yerlarni melioratsiya qilish yo'llarini bilishi va ulardan foydalanishni olishi; -talaba yerga ishlov berish va ekinlarni ekishni sifatli o'tkazishi; -sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi va botqoqlanishi, eroziyani oldini olish va unga qarshi kurash tadbirlarini qo'llash va ulardan foydalanishni olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. - Ushbu fan dehqonchilikning ilmiy asoslari va asosiy qonunlari, yetakchi olimlarining dehqonchilik faniga qo'shgan hissalari, dehqonchilikda ilg'or va innovatsion texnologiyalarni qo'llanishi, ularning O'zbekiston dehqonchilikdagi ahamiyati kabi o'ta dolzarb masalalarni qamrab oladi. Tuproqning suv, havo, issiqlik, oziq rejimlari va ularni boshqarish usullari, begona o'tlarga kurash choralarini, yerga ishlov berishning zamonaviy usullarini haqidagi bilimlar bilan boyitadi. Sug'oriladigan dehqonchilikning umumiy masalalari, tuproq va o'simliklarning suv rejimlari, sug'orishning istiqbolli usullari, tuproqlarning sho'rlanishi va botqoqlanishiga qarshi kurash, irrigatsiya va shamol eroziyasiga qarshi kurashish, unumdorligi past yerlarni o'zlashtirish, kabi muhim masalalar mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bo'yicha malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • munozara; • o'z-o'zini nazorat; • "Aqliy hujum"; • "Muammo"; • Krossvord • Annotagrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, dehqonchilikning ilmiy asoslari va asosiy qonunlari, tuproqning agrofizik va agrokimyoviy xossalari, tuproq rejimlari, begona o'tlar turlarini aniqlash va ularga qarshi kurash, yerga ishlov berish usullari va muddatlari, sug'orishning istiqbolli usullari, sho'rlangan va botqoqlangan tuproqlarning yaxshilash, ekinlarning tuz ta'siriga chidamligini oshirish, tuproqlar eroziyasiga qarshi kurash tadbirlarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbir etish haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of Agronomy, New Delhi, 2010.
2. Crop rotation on organic Farm. A planning manual. /Charles L. Mahler and Sue Ellen Johnson edition publishing by NRAES, 2009
3. Azimbayev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyoviy asoslari (Darslik). T. Iqtisodiyot-moliya 2006. - 180 b.
4. Mo'minov K., Bobomirzaev P., Izbosarov B., Nosirov B., Muminova Z. "Dehqonchilik va melioratsiya fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar. (O'quv qo'llanma). T., 2019. - 270 b.
5. Artukmetov Z.A., Sheraliyev X.Sh. Ekinlarni sug'orish asoslari (darslik). T.: O'zbekiston faylasulur milliy jamiyati. 2007.-312b.
6. Norqulov U., Sheraliyev X. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi (darslik) T.: ToshDAU tax-nashr ishlar bo'limi. 2003. -214 b.
7. To'xtashev B., Azimbayev S., Qarabayeva T., Berdiyev E., Nurmatov B. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi va yer tuzlash fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari (o'quv qo'llanma) T.: ToshDAU. 2012. -187 b
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirish barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b
9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. -47 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. -485 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 103 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF. 4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-moddalari
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13-iyundagi "2017 yilda boshqoqli don ekinlaridan bo'shaydigan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirish, ekish uchun talab etiladigan moddiy-texnika resurslarini o'z muddatida yetkazib berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-3027-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kun" bayram tadbirida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligining mavjud inqisodiyatlaridan yanada samarali foydalanish, sohasida iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirish, ilm-fan yutuqlari va innovatsion yangiliklarni tizimli joriy etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3432-sonli Qarori
15. Azimbayev S.A., Artukmetov Z.A., Sheraliyev X., Norqulov U., Shodmanov M. Umumiy dehqonchilik va melioratsiya asoslari. T.: Uzkonsentr. 2002. - 182 b.
16. Xolikulov Sh.T. Uzakov P., Boboxujayev I. Tuproqshunoslik 2013. 120-130 b
17. Zurov E.I. Dehqonchilikdan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma T. O'qituvchi, 1979. — 179 b.
18. Xolliqov B. Yangi almashtirib ekish tizimlari va tuproq unumdorligi. T.: 2010. 120b
19. Sheraliyev X., Shodmanov M. «Dehqonchilik» Ma'ruzalar matni, T.: 2004.-39 b
20. Ermatov A.K. Sug'oriladigan dehqonchilik. Darslik. T.: O'qituvchi 1983.-180 b.

21. Hamidov M. Raximboyev F. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi. T. 1996. -320 b.	
22. Sanaqulov A., Abdurahimov M.K., Rahimov A/ Dehqonchilik va melioratsiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Samarqand 2020. 165 b.	
23. Artukmetov3.,Allanov X. - Sug'orish tizimlari va ulardan foydalanish. O' quv qo'llanma 2010. 110 b.	
24. Morozov M/ Melioratsiya to'g'risida ommabop. Toshkent 2016.120 b	
25. Sug'oriladigan yerlar sh'o'rini yuvish ishlarini tashkil etish buyicha tavsiya. Toshkent 2012. 32 b	
26. Qurg'oqchilik hududlarida suv resurslarini minimal sarflaydigan irrigatsiya va melioratsiya hamda qishloq xo'jaligini yuritish usullari bo'yicha qo'llanma. Toshkent 2012. 8-22 bet.	
AXBOROT MANBALARI:	
27. www.history.ru	
28. www.natura.com	
29. www.archeology.ru	
30. www.archeology.com	
31. https://uz.warbletoncouncil.org/archeologia https://education.nationalgeographic.org/resource/archaeology/ https://www.saa.org/about/archaeology/what-is-archaeology https://www.nps.gov/subjects/archaeology/index.htm https://www.amnh.org/explore/ology/archaeology/what-is-archaeology http://www.ziyounet.uz/	
7. Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagi 1 -son buyonnomasi bilan ma'qullangan.	
8. Fan/modul uchun mas'ullar M.K.Abduraximov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, "Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar" kafedrasi professori qishloq xo'jaligi fanlari doktori. J.Q.Abdumalikov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, "Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar" kafedrasi assistenti qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD)	
9. Taqrizchilar: T.Q. Ortiqov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi dotsenti. N.Xalilov- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori	

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishechi gurubi:
Rais – Sh.T.Xoliqulov, *(signature)*
Kafedra mudiri: *(signature)* Sh.Xoliqulov

Institut o'quv uslubiy kengashi raisi *(signature)* Sh.Mamasov
Institut direktori: *(signature)* T.Rajabov

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
I-prorektor: *(signature)* A.S. Soleyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810500 – O'simliklarni himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi talabulari uchun Dehqonchilik va melioratsiya fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda fan dasturi va sillabuslarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Chunki fan dasturi va sillabuslari o'tiladigan fanlarning o'qitilish shakli va mavzularini ketma-ketligini tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

60810500 – O'simliklarni himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabulari uchun
Dehqonchilik va melioratsiya fani 3-4 semestrda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berib tuzilgan. Unda talabalar mustaqil ta'lim mavzularini bajarishlarida fanning bo'limlaridagi mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarishi orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirishiga alohida e'tibor qaratilgan. Fan dasturi va sillabusni tuzishda muallif fanning maqsadi, vazifasi, fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar, ta'lim natijalarini ko'rsatish orqali tuzilgan. Shuindek fanni baholashda kredit mezonini va tartibi, darsdagi faolligi, mustaqil ta'lim topshiriqlari, bajarish bosqichlari ularga ajratilgan ballari keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, **60810500 – O'simliklarni himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi** uchun Dehqonchilik va melioratsiya fanidan tuzilgan ushbu fan dasturi va sillabus oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti professori



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810500 – O'simliklarni himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Dehqonchilik va melioratsiya fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturida talabalar Dehqonchilik va melioratsiya fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturida Dehqonchilik va melioratsiya fanining ilmiy asoslarini, rivojlanish tarixini, tuproqlarning xossalari, begona o'tlarning ta'rifi va ularga qarshi kurash tadbirlari yerga ishlov berish, qishloq xo'jalik ekinlarini ekish, madaniy ekinlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va ularni rayonlashtirishni, biologik xususiyatlarini, etishtirish va yig'ib-terib olish usullarini, istiqbolli turlari va navlarini, agrotexnikasi va ekish texnologiyasini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbir etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat deb maqsad qo'yilgan.

Talaba ushbu fanni o'qishi davomida madaniy o'simliklar uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni o'rganadi. Madaniy o'simliklarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, tashqi muhitga talabi, morfologiyasi, biologiyasi, sistematikasi, yuqori hosilni ta'minlaydigan zamonaviy ilg'or agrotexnologiyalar tizimini organib oladi.

60810500 – O'simliklarni himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun Dehqonchilik va melioratsiya fani 4-semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturida 60810500 – O'simliklarni himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi uchun Dehqonchilik va melioratsiya fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti Tuproqshunoslik va

agrotexnologiyalar kafedrasi dotsenti

